ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Aminov Sunnatullo Tuychiyevich

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti

Tarix mutaxassisligi magistranti

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMINING SHAKLLANISHI VA XALQARO HAMKORLIKKA KIRIB KELISHI(1991-2010 yy)

Annatatisiya. Mazkur maqola oliy ta'limda mustaqillikdan keyin bo'lgan o'zgarishlar asosida tahlil qilinadi. Oliy ta'lim tizimining xalqaro shakllanishi hamda chet el davlatlatlari bilan bir qatorda qilingan hamkorliklari nazariy va amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ilm-fan,oliy ta'lim, hamkorliklar, oliy ta'limda bo'layotgan yangiliklar, ta'lim to'g'risida, kadrlar tayyorlash.

Аннатисия. Данная статья будет проанализирована на основе изменений, произошедших в высшем образовании после обретения независимости. Будет раскрыта теоретическая и практическая значимость международного формирования системы высшего образования и сотрудничества с зарубежными государствами.

Ключевые слова: наука,высшее образование, сотрудничество, инновации в высшем образовании, Об образовании, обучении.

Annatation. This article will be analyzed on the basis of changes in higher education after independence. The theoretical and practical significance of the international formation of the higher education system and its cooperation with foreign states is revealed.

Keywords: Science,higher education, partnerships, innovations in higher education, about education, training of personnel.

Kirish. Oliy ta`lim tizimi. "Oliy ta`lim" atamasi zaminida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo'llagan va o'z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi. Oliy ta`limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta`lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma`naviyatga bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta`lim tizimi quyidagicha tuzilgan:

- xususiy yoki davlat qaramog'ida kanligidan qat`iy nazar ta`limiy hamda kasbga tayyorlash dasturlarini davlat ta`lim standarti asosida tatbiq etuvchi oliy ta`lim muassasalari;
- oliy ta`limni rivojlanishiga zarur bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-tadqiqot institutlari;
- davlat tomonidan ta`limni boshqaruvchi idoralar, shuningdek, ularga qarashli bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalar.

Oliy ta`lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat — bu to'rt yil davom etuvchi yo'naltirilgan nazariy va amaliy bilim beruvchi oliy ta`limning birinchi bosqichi hisoblanadi. Bakalavr dasturini o'qitish niho siga etgach talaba

davlat attestatsiyasining kuniy xulosasiga muvofiq o'qitilgan yo'nalish asosida "bakalavr" darajasiga loyiq deb topiladi hamda davlat namunasida ko'rsatilgan diplom beriladi.

Magistratura — bu ikki yil davom tadigan aniq yo'nalish asosida nazariy hamda amaliy bilim beruvchi, bakalavrni bitirgachgina tanlov asosida ta`lim olish davom ttirilishi mumkin bo'lgan oliy ta`lim bosqichi. Magistraturada o'qish kunlangach bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi kommisiyasining kuniy xulosasiga muvofiq aniq mutaxassisligi ko'rsatilgan "magistr"lik darajasi va magistrlikni tasdiqlovchi davlat namunasida ko'rsatilgan diplom beriladi. Davlat namunasidagi bakalavr va magistr diplomlari diplom egalariga mutaxassisliklari bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki o'quv muassasasida kelgusida o'qishni davom ettirish imkonini beradi.

Eng samarali investitsiya — bu ta'limga qilingan investitsiyadir. Chunki jamiyat taraqqiyotini, uning ertangi kunini yetuk malakali kadrlar belgilab beradi. Ta'lim tizimini takomillashtirish — ularning bilimini oshirish, sifat darajasini ko'tarishdir.

So'ngi yillarda ta'limga ajratilayotgan mablag' mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YIM) 10–12 foizini tashkil etib, davlat byudjetining 35 foizidan ko'proq qismini tashkil qilmoqda. Ta'limning barcha bosqichlarida Davlat dasturlari amalga oshirilib, yoshlarga puxta bilim olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Yurtimizda uzluksiz va uzviylik tamoyillariga tayangan ta'lim tizimi yaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyatda ma'naviy va intellektual salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, davlatimizning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Jumladan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 41-moddasida ta'lim sohasiga alohida to'xtalib o'tilgan: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir".

Adabiyotlar tahlili va metod. 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mamlakatda barcha sohalar qatori ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilish zarurati yuzaga keldi. Sobiq ittifoq davrida mavjud bo'lgan oliy ta'lim tizimi markazlashgan bo'lib, u mustaqil davlatning ehtiyojlariga to'liq javob bera olmas edi. Shu sababli milliy manfaatlarga asoslangan yangi ta'lim tizimini yaratish muhim vazifa sifatida belgilandi.

1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik asosini yaratdi. Ushbu hujjatlar orqali:

uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi

bakalavriat va magistratura bosqichlari tashkil qilindi

ta'lim sifati va mazmunini yangilashga alohida e'tibor qaratildi

Mazkur davrda oliy ta'lim muassasalari soni oshdi, yangi universitetlar va institutlar tashkil etildi. Ta'lim yo'nalishlari kengaytirilib, iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, o'quv dasturlarini zamonaviylashtirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash ishlari amalga oshirildi.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona aloqalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Bu hamkorlik ta'lim sohasida ham o'z aksini topdi.

Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Ushbu hamkorlik quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi:

talabalar va magistrantlar almashinuvi

ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish

qo‘shma ilmiy tadqiqotlar olib borish

Mintaqaviy hamkorlikning asosiy maqsadi umumiy muammolarni birgalikda hal qilish, ilmiy salohiyatni oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashdan iborat edi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida ta’lim standartlarini yaqinlashtirish, tajriba almashish va o‘zaro tan olish mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha dastlabki qadamlar qo‘yildi.

Bu davrda hamkorlik hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lsa-da, keyingi yillardagi rivojlanish uchun muhim poydevor yaratdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Yevropa mamlakatlari bilan ham faol hamkorlik o‘rnatishga intildi. Bu jarayon, ayniqsa, oliy ta’lim sohasida muhim ahamiyat kasb etdi.

Yevropa davlatlari, xususan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlar bilan ta’lim sohasida aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Ushbu hamkorlik doirasida:

o‘qituvchilar va talabalar almashinuvi yo‘lga qo‘yildi

xorijiy mutaxassislar jalb qilindi

qo‘shma ta’lim loyihalari amalga oshirildi

Yevropa Ittifoqining Tempus dasturi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Ushbu dastur orqali:

o‘quv dasturlari modernizatsiya qilindi

yangi pedagogik texnologiyalar joriy etildi

oliy ta’lim muassasalarining xalqaro aloqalari kengaydi

Shuningdek, bir qator universitetlar Yevropa oliy ta’lim muassasalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlik shartnomalarini imzoladi. Bu esa akademik almashinuvni rivojlantirishga xizmat qildi.

Mazkur davrda amalga oshirilgan islohotlar va xalqaro hamkorlik O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining keyingi rivoji uchun mustahkam asos yaratdi.O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumati o‘rtasida 1993-yil 19-martda tuzilgan madaniyat,fan va texnika, ta’lim, sog‘liqni saqlash, axborot, sport va turizm sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risidagi Bitimga, 1993-yil 13-martda Moskva shahrida imzolangan ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash sohasida hamkorlik qilish hamda ularning malakalari haqidagi hujjatlarni Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida tenglashtirish to‘g‘risidagi Bitimga amal qilgan holda, oliy ta’lim sohasida teng huquqli hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘zaro manfaatdorlikni hisobga olib, insonparvarlik va muloqot madaniyati asosida ta’limning milliy tizimlari mazmunini yangilashga

intilib, o‘zaro munosabatlarda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida qayd etilgan umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligidan kelib chiqqan holda, Tomonlar o‘zaro kelishuvga binoan belgilab olingan yo‘nalishlar bo‘yicha oliy ta’lim sohasidagi hamkorlikni sherikchilik tamoyillarida rivojlantiradilar. Ular bu hamkorlik uzoq muddatli va konstruktiv xarakter kasb etish uchun kuch-g‘ayrat sarflaydilar.

Tomonlar quyidagi yo‘nalishlarni hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari deb biladilar:

universitetlar, institutlar va o‘rta o‘quv yurtlari o‘rtasida bevosita aloqalarni rivojlantirish;

ijtimoiy, tabiiy-ilmiy va texnik ta’limni rivojlantirishga yordam beradigan o‘quv va ilmiy dasturlar hamda loyihalarni birgalikda tayyorlashni tashkil etish;

yosh olimlar va professor-o‘qituvchi kadrlar almashish yo‘li bilan ilmiy salohiyatni kengaytirish;

ta’lim tizimida litsenziyalash va akkreditatsiyalashning qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

axborot tarmoqlari va matbuot banklarini vujudga keltirish, mavjud materiallarni almashish va distansion ta’lim bo‘yicha yangi texnologiyalar ishlab chiqish;

sherik-mamlakat tilini va madaniyatini o’rganish.

Muhokama Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi yangi bosqichga ko‘tarildi. Sobiq ittifoq davridagi markazlashgan tizim o‘rniga milliy model ishlab chiqildi. 1997-yilda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilinib, bu tizimning asosiy poydevorini yaratdi.

Bu davrda oliy ta’lim muassasalari soni oshirildi, yangi mutaxassisliklar joriy etildi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikning dastlabki bosqichi boshlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan ta’lim sohasida aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan talabalar almashinuvi, ilmiy konferensiyalar tashkil etildi.

Yevropa mamlakatlari bilan ham hamkorlik boshlangan bo‘lib, ayniqsa Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya bilan aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Ushbu davrda Yevropa Ittifoqining Tempus dasturi orqali bir qator loyihalar amalga oshirildi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Ayni chog‘da o‘zbekistonlik yoshlar xalqaro olimpiyadalar, san‘at va madaniyat ko‘rgazmalarida hamisha yuqori saviyada qatnashib kelmoqdalar. Ularning hammasi mamlakat raxbarining ta‘limtarbiya sohasiga qaratayotgan yuksak e‘tibori, bu borada amalga oshirilayotgan izchil islohatlar va kompleks chora tadbirlar samarasidir‖.Shunday iliq fikrlarni Rene Tollemer, Xalqaro tibbiyot akademiyasi ekspermizasi a‘zosi, Tuluza universiteti professori (Fransiya) , Lyuza Serdeyra, universiteti prorektori (Portugaliya) , Dayen Adachi, Vashington universiteti vitse- prezidenti yordamchisi (AQSh). Ushbu iliq fikrlarning bildirilishi bizning ta‘lim tizimimiz Jahon Hamjamiyati tomonidan tan olinganligini isbotlaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki yurtimizda buyuk ajdodlarimizga munosib izdosh bo‘lish uchun yoshlarimizga barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Buning uchun , davlat boshqaruvi tomonidan , zaruriy ta‘lim yo‘nalishlarini va ular bo‘yicha bilim oladigan mutaxasislarga bo‘lgan ehtiyojni belgilash yangi o‘quv-uslubiy asoslarni yaratish hamda boshqa tashkiliy ishlarni amalga oshirish lozim

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Sh.M.Mirziyoyevning “O’qituvchi va murabbiylar” kuniga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.

2. https://www.unicef.org

3.https://daryo.uz

4.O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 2-bob